

Date: 23<sup>rd</sup> December-2024

SHAXS FAOLIYATIDA MOTIVATSIYASI JARAYONING AHAMIYATI

**Xudayberdiyeva Sevara**

International school of finance technology and science instituti

Psixologiya va pedagogika kafedrası o'qituvchisi

xudayberdiyevas@isft.uz

**Maxkamova Zilola Qarshiboyeva Nazokat**

International school of finance technology and science instituti

2-kurs 23-PSD-03 guruhi talabalari

**Annotatsiya.** Maqolada ta'lim va tarbiyaning inson kamolida tutgan o'rni va roli, Sharq muafakkirlarining bu boradagi pedagogik sarashlari xususidagi ximmatli fikrlari xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, tarixiy mumtoz manbalarda mavjud asliy, jismoniy, ma'naviy, estetik tarbiyaga doir qomusiy olimlarning sarashlari to'g'risidagi mumtoz muloazalari yoritilgan. Maqolada shaxs tarbiyasida ilm- ma'rifatning ulkan jamiyatiga alohida urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, ijtimoiy tarbiya, tarbiya nazariyasi, pedagogika tarixi, axloqiy tarbiya, individual xususiyat, xalq pedagogikasi, aqliy rivojlanish.

**Abstract.** The article examines the role and place of education and upbringing in human development, the valuable views of Eastern and Western thinkers on pedagogical views on this matter. There are also mummified comments on the views of encyclopedists on mental, physical, spiritual, aesthetic education, which are found in classical historical sources. The article emphasizes the great importance of science and education in the upbringing of the individual.

**Keywords:** education, social education, pedagogical theory, history of pedagogy, moral education, individual character, folk pedagogy, mental development.

Motivatsiya shaxs faolligi, xulqi va faoliyatini tartibga soluvchi muhim omil sifatida barcha insonlarda qiziqish uyg'otadi. Shu ma'noda motivatsiya psixologiyasi mehnat ob'ekti bo'lib inson turadigan (shifokor, pedagog, menejer va boshqaruvchilar kabi) sotsioekonomik tip kasb vakillari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Aslini olganda, inson motivatsiyasini hisobga olmasdan turib hech qanday samarali ijtimoiy munosabat (shuningdek bolalar, o'smir va yoshlar bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-pedagogik munosabatlar ham) o'rnatib bo'lmaydi. Ob'ektiv ravishda insonning bir xil xatti-xarakatlari ostida umuman turli xil sabablar yotishi mumkin. Ya'ni ushbu xatti-xarakatlarga undovchi asoslar, ularning motivatsiyasi umuman har xil bulishi mumkin. Lekin aniq faktlar va qonuniyatlarni muhokama qilishdan avval bizdan asosiy tushunchaga ta'rif berish talab etiladi. Hozirgi zamon psixologiyasida motiv tushunchasini talqin qilish bo'yicha umumiy yondashuv bo'lsa-da ushbu tushuncha ta'rifi borasida fikrlar uyg'unligi mavjud emas. Shu bilan birgalikda, aynan "motiv" tushunchasining o'zi ma'lum bir ilmiy muammoni keltirib chiqaradi deb aytish mumkin. Ayrim olimlar, jumladan K.K. Platonov



Date: 23<sup>rd</sup>December-2024



motivga xarakterga undovchi ruhiy voqealik deb ta'rif bersa, boshqalar esa shaxsning hatti-harakati asosida yotuvchi anglangan sabab deb qaraydilar. Shuningdek, ba'zi olimlar motiv deganda insonning ongida aks etib, uni faoliyatga undovchi, aniq bir talabni qondirishga yo'naltiruvchi kuch sifatida talqin qiladilar. Shu bilan bir qatorda ular motiv sifatida talabning o'zini emas, balki talab predmetini alohida ko'rsatadilar. (A.N. Leontev). Motiv va "talab" kategoriyasi o'rtasidagi aloqa borasida umumiy holat ko'p hollarda munozarali bo'lmasa kamki, ayrim hollarda bu yerda bir-biriga zid fikrlar mavjud. Shu ma'noda bir qarashda radikal bo'lib qabul qilinadigan - talabning motiv emasligi to'g'risidagi fikr sanaladi. Lekin ushbu tezisni ochib berish davomida, ko'pgina olimlar odatda motiv bo'lib talablar emas, balki ob'ektiv faoliyat predmeti va voqealikasi hisoblanishi to'g'risidagi fikrni tan olish kerakligini ta'kidlaydilar. Ushbu holat endi radikal deb hisoblanmaydi. Rus psixologiya maktablari motivatsiya nazariyasiga ko'ra motiv to'g'risida gap ketganda aynan anik bir talabni ko'zda tutish qabul qilingan. Demak, "talab" va "predmet" kategoriyalarini bir-biriga zid quyish maqsadga muvofiq emas. Faoliyat psixologik konsepsiyasi muallifi A.N. Leontev fikriga ko'ra, faoliyat predmeti motiv bo'lishi bilan birga moddiy va ideal bo'lishi mumkin va eng muhimi uning orqasida har doim talab turadi va shu bilan birga u yoki bu talabga javob beradi.

Demak, motiv deganda biz ma'lum bir talabni qondirish bilan bog'liq bo'lgan shaxsning u yoki bu faoliyat (ish, muomala, fe'l-atvor)ga undovchi ichki intilishini tushunamiz. Motiv sifatida ideallar, shaxs manfaatlari, ishonch, ijtimoiy qurilmalar va qadriyatlar xizmat qiladi deb qabul qilamiz. Shu bilan birga, yuqoridagi barcha sabablar orqasida baribir shaxsning turli xil talablari (hayotiy va biologik talablardan tortib to oliy ijtimoiy talablargacha) turadi. motivatsiyasi va omadsizlik qurquvi motivatsiyasiga chizgilar chizdik. Muvaffaqiyat motivatsiyasi, shubhasiz ijobiy xarakterga ega. Bunday motivatsiyada inson xarakati konstruktiv, ijobiy natijalarga erishishga yunaltiriladi. Bu yerda shaxsning faolligi muvaffaqiyatga erishish talabiga bog'lik. Muvaffaqiyat motivatsiyasi. Bunday tipga oid shaxslar odatda faol va tashabbuskor bulishadi. Agar oldilarida tusiklar paydo bulsa, ularni yengib o'tish yullarini kidiradilar.

Faoliyat samaradorligi va uning faolligi darajasi tashki nazoratga bog'lik bulmaydi. Maqsadga erishish yo'lida qat'iylik bilan ajralib turadi. O'z kelajaklarini uzoq muddatli davrga rejalashtirishga moyildirlar. Vazifa jozibadorligi uning mushkulliga nisbatan proporsional ravishda oshib boradi. Xususan, bu yuqoridan berilgan emas, balki ixtiyoriy vazifalar misolida namoyon buladi. "Majburiy ravishda" topshirilgan vazifani konikarsiz amalga oshirilsa x,am uning jozibasi ilgarigi darajada saklanib koladi. Omadsizlik sursuvi motivatsiyasi. Tashabbus kam ko'rsatadilar. Ma'suliyatli vazifadan o'zlarini olib qochib, uni rad etishga sabab kidiradilar. O'z oldilariga asossiz yuqori maqsadlar qo'yadilar, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baxolay olmaydilar. Boshqa xolatlarida, bunga qarama - qarshi ravishda ko'p kuch talab qilmaydigan yengil vazifalarni tanlaydilar. Zeygarnik effekti muvaffaqiyatga intilganlarga karaganda kam darajada namoyon buladi. Bunday shaxslar omadsizliklari oldida erishilgan muvaffakiyatlarini juda oshirib kursatishga moyil buladilar. Ko'rinib turibdiki bu holat orzu-umid nazorati effekti bilan bog'liq bo'lishi

Date: 23<sup>rd</sup> December-2024

mumkin. Vaqt tig'izligi sharoitida va muammoli xarakterdagi topshiriqlarni bajarishda ish samaradorligi pasayadi. Maqsadga erishishda kamroq qat'iylik bilan ajralib turadilar (lekin bundan istisnolar xam bo'lishi mumkin). Ma'lum bir topshiriqni bajarishda omadsizlikka uchrash, shu topshiriqning jozibadorligini pasayishiga olib keladi. Shu bilan birga ushbu xolat "majburiy ravishda" topshirilgani yoki shu sub'ektning shaxsan o'zi tomonidan tanlanganiga bog'liq bo'lmaydi. Vaxolanki, topshiriq jozibadorligini miqdor nisbati ikkinchi xolatda (uzi tanlagani) birinchi holatga (boshka inson tomonidan topshirilgan) qaraganda kamroq namoyon bo'lishi mumkin. Muvaffaqiyat motivatsiyasi va omadsizlik qo'rquvi motivatsiyasi diagnostikasi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, eng optimal metod bu kuzatish xisoblanadi. Chunki pedagogda o'quvchining o'zini tutishi va ishini turli xil hayotiy va ta'lim xolatlarida kuzatish imkoniyati mavjud buladi. Bundan tashqari, u o'quvchining shaxsiyati, faoliyati va uzini tutishi ustidagi o'z kuzatishlarini sermuloxazali va chukur psixologik analiz kilishga imkon beradi. motivatsion doira (predmetga bulgan qiziqish, tanlangan kasbni anglab yetish va boshkalar)ning rivojlanishi bilan to'ldirilishi natijasida, o'quvchi talaba yuqori natijalarga erishishi mumkin.

### **Xulosa**

Kishi xarakteridagi bunday xislat avvalo uning o'z mehnat faoliyatlari va hatti-harakatlarida ko'zlaydigan maqsadning aniqlik darajasidan iborat bo'ladi. Kishidagi irodaviy faollik intilishdan boshlanishi, intilishlar esa qanchalik anglab olinganligiga qarab bir-biridan farq qilishi sababli, odamlar xakteri ham, ularda qanday intilish ustun bo'lishiga qarab, bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi odamlarning qiladigan harakatlarida hali yaxshi anglab olinmagan intilish, ya'ni moyillik ustunlikni egallaydi. Bunday kishilarning intilishi, ko'pincha, noaniq, bemazmun bo'ladi. Bunday kishilar hamma vaqt nimanidir qidiradilar, nimanidir qumsaydilar, doimo ularga nimadir yetishmaydi, nimadir istaydilar, ammo uning nima ekanligini o'zlari ham bilmaydilar. Bunday odamlarni hych narsa qanoatlantirmaydi. Ularda hamma vaqt zerikish, homushlik, «nolish», «tajribasizlik»ni ko'ramiz. Bunday odamlarda, ko'pincha, ko'ngli notinchlik, bezovtalik va hovliqish bo'ladi. Bunday odamlarning hatti-harakatlarida rejasizlik, tanglik ko'p bo'ladi. Ba'zi odamlar nimaga intilayotganliklarini anglaydilar, lekin uni amalga oshirish uchun faoliyat ko'rsatmaydilar. Ular hamisha nimanidir qumsaydilar, noliydilar, o'zlarini va atrofdagi kishilarni tanqid qiladilar. Bunday odamlar orzu-xayollar (ko'pincha, «yaxshi» niyatlar) ga beriladilar, goho-goho g'ayratlari jo'sh uradi, ammo aslida ular faoliyatsiz, sustkash bo'ladilar. Bunday xislatlar, asosan, tarixiy o'tmish kishilari xakteri alomatlari bo'lib, zamonamiz kishilari xakteridan uzoqlashib bormoqda. Kishi xakterining muhim ijobiy xislati maqsadga intilishdir, kishida muayyan hohish tariqasidagi batamom anglab olingan intilishning ustun turishidir. Bunday kishilar istaklari nima ekanligini, maqsadlari nimadaligini va unga erishish uchun nimalar qilmoqligi va qanday qilmoq lozimligini hamisha biladilar. Bunday kishilar aniq maqsadga ega bo'lib, shu maqsadga muvofiq harakat qiladilar. Iroda bilan bog'liq bo'lgan xakter xislati ayni vaqtda aql-farosat bilan bog'liq iroda xislati hamdir.



Date: 23<sup>rd</sup>December-2024

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. G'oziyev E., Psixologiya fani XXI ayerda, T., 2002;
2. G'oziyev E., Psixologiya, T., 2003;
3. Qodirov B., Layoqat psixologiyasi, T., 2001;
4. Shoumarov G', Oila psixologiyasi, T., 2000;

